

**OG'IR HAYOTIY VAZIYATGA TUSHGAN YOKI TUSHISH XAVFI YUQORI
BO'LGAN HAR BIR OILA BO'YICHA ALOHIDA “IJTIMOIY XIZMAT ISHI”NI
YURITISH**

Jabborova Shodiya Oybekovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Xudoyberdiyeva Dilnoza San'atovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Qurbondurdiyeva Zamira Maqsudbekovna

*Samarqand Davlat Universiteti Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Rizvonkulov Aminjon Xamidjanovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila tushunchasi, asosiy xususiyatlari, oilaning turlari, mazmun va mohiyati, oilaning jamiyat hayotidagi o'рни, oilalarni o'rganishdayaxlitbir tizimsifatidagi qarashlar o'rganilib, tahlil qilingan. Og'ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo'lgan har bir oila bo'yicha alohida “ijtimoiy xizmat ishi”ni yuritish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Oila kodekisi, oila tushunchasi, oilaning funksional xususiyatlari, oila turlari, oila energetikasi, oila tizimi, oilaning chegarasivahududi.*

Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida hukumat qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, joriy yilning 15-oktabridan o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan aholi “Inson” markazlari tomonidan tasdiqlangan jadval asosida bir yilda kamida bir marotaba chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Ijtimoiy xodimlarga fuqarolardan kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash bo'yicha arizalarni qabul qilish vakolati beriladi.

2024-yildan birinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxsga yoki 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolaga hamda davolash muassasasining xulosasiga ko'ra o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turishning haqiqiy holatlari ijtimoiy xodimlar tomonidan bir yilda bir marotaba o'rganiladi.

Bunda, o'rganish ma'lumotlari “Yagona milliy ijtimoiy himoya” axborot tizimi orqali yuritib boriladi.

Kelasi yilning 1-iyulidan moddiy yordam va boshqa ijtimoiy xizmatlarni hisobga olishning yagona tizimini yaratish orqali har bir fuqaro (oila) uchun belgilangan ijtimoiy

to'lovlar, taqdim etilgan imtiyozlar, shu jumladan, subsidiyalar, xizmatlar va yordamlarning har bir fuqaro kesimida "Ijtimoiy himoya" ATda hisobi yuritiladi.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlariga muvofiq ochilgan davlat jamg'armalari va boshqa jamg'armalar integratsiya qilinadi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan:

- joriy yilning 1-noyabridan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar eksperiment tarzida yo'lga qo'yiladigan tuman (shahar)larda "Inson" markazlarida og'ir vaziyatga tushgan aholi uchun psixologik yordam ko'rsatish tizimi joriy etiladi;
- 15-noyabrgacha o'zining tizimiga kiradigan tashkilotlarga tegishli bino va inshootlarga ijtimoiy himoya yo'nalishidagi NNTlarini, zaruratga ko'ra, tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish choralari ko'riladi;
- 1-dekabrgacha tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o'tkazish natijasiga ko'ra nogironligi bo'lganlar uchun sog'lig'ining holatiga ko'ra mumkin bo'lgan mehnat faoliyati turlari va mehnat sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar integratsiyasi ta'minlanadi;
- 2024-yilgacha ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining murojaatlarini tezkor ko'rib chiqishga mo'ljallangan "ishonch telefoni" ishga tushiriladi.

Oktabr oyi boshida aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan prezident qarori qabul qilingandi. Unda O'zbekistonning 28ta tuman (shahar)larida tajriba tarzida "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etilishi belgilangan.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari direktorlariga muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini uy-joy fondiga ega bo'lgan muassasalarga olti oy muddatgacha vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish huquqi beriladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq, og'ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo'lgan har bir oila bo'yicha alohida "ijtimoiy xizmat ishi"ni yuritish tartibi joriy etilishi belgilangandi.

Bu haqda Prezidentimizning 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ma'lum qilindi.

Qarorga ko'ra, 2023 yil 1 oktyabrdan boshlab og'ir hayotiy vaziyatga tushgan yoki tushish xavfi yuqori bo'lgan har bir oila bo'yicha alohida "ijtimoiy xizmat ishi"ni yuritish tartibi amaliyotga joriy etiladi. Bunda, ushbu oilalarda sharoitni yaxshilash, ularga davolash, dori vositalari bilan ta'minlash, farzandlarini maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlariga joylashtirish, moddiy yordam berish kabi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish nazarda tutiladi.

Shuningdek, 2024 yil 1 yanvardan boshlab Toshkent shahrining tibbiyot muassasalarida davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar hajmi va dori vositalari ro'yxatini amaliyotga kiritishni nazarda tutuvchi davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya hamda dori vositalari bilan ta‘minlash ishlari “vaucher” tizimi asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bunda, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tovar va xizmatlarni o‘zlari tanlagan yetkazib beruvchidan xarid qilish imkoniyati yaratiladi va ularning xarajatlari Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi²⁸.

Mashhur faylasuf V. Gyugoaytganidek, “oilajamiatning durugavharidir”. Shuningdek, “Oila tabiatning shox asarlaridan biridir”. Xuddi shox asar hisoblangan oilani o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo‘lib, hozirgi davrda mustaqil O‘zbekistonda bu borada juda kattama‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar olib borilmoqda. “Oila” haqida gapirar ekanmiz, avvalombor, oilahayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qandayinson bo‘lib yetishigabevositata‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘iekaninidebbilamiz. Harbiroilaning kelajagiva istiqboli, uning mustahkamligiga, sog‘lom turmush tarziga bog‘liqdir. Buo‘znavbatidaxalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo‘lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan bir bo‘lib hisoblanadi.

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir, hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deyilgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida²⁹. 1998 yila “Oila yili” da “Oila kodeksining” qabul qilingan va bu hujjat “Oila” so‘zining “Nikoh” so‘ziga nisbatan kengroq ma‘no anglatishi hisobga olinib, amalda qo‘llanib kelingan “Oila va nikoh” kodeksi yangilangan va to‘ldirilgan. “Oila” kodeksi 238-moddadan tarkib topgan sakkiz bo‘limdan iborat³⁰. “Umumiy qoidalar” deb ataluvchi bo‘limning sakkiz moddasi “oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an‘analarining qo‘llanishi” haqida bo‘lib, jumladan, bu masala shunday ifodalangan: “Qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf-odat va an‘analarga qo‘llaniladi”.

Bunda O‘zbek xalqida kelin-kuyovga eskichaniko ho‘qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqaxalqlar, jumladan, ruslarda cherkovdaniko ho‘qitish, turklarda esa nikoh to‘yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyov nima‘lum muddat davomida oila a‘zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an‘anaviy yodumlar ko‘zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: oila - bu uyushgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a‘zolari umumiy hayot, nikoh yoki qarindoshlik

²⁸ https://uza.uz/oz/posts/endi-ijtimoiy-xizmat-ishini-yuritish-tartibi-joriy-etiladi-u-qanday-amaliyot_519223

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Adolat, 2018

munosabatlar bilan, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlarini tufayli ma'naviy javobgarlik bilan bog'lanadi"³¹.

Oilavaunixarakterlovchiturlimezonlargako'raquyidagilargafarqlanadi:

- 1) To'liqligigako'ra: to'liq, noto'liq, qayt tuzilgan (2 nikoh) oilalar.
 - 2) Bo'g'inlar sonigako'ra: nuklear (otavonavabolalardan iborat) vako'p nomli (ikkivaundan ortiq avloddan iborat oila) zolari birgayashovchi oila.
 - 3) Bolalar soniga ko'ra: farzandiz, bir bolali, ikki bolali, uch- to'rt bolali, beshvaundan ortiq bolali oila. Masalan: AQSH, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda to'rt bolali oilalar ko'p bolali oilalar hisoblanadi. O'zbekiston dardunday oilalar, farzandlar soni o'rtachabo'lgan oilalar sirasiga kiradi.
 - 4) Er-xotinning ijtimoiy kelibchiqishigako'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatchilar, ziyolilar, aralash tipdagi oilalar kiradi.
 - 5) Oilaning yoshiga ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yishdagi oila, yetuk yoshdagi oila (qariyalar oilasi) kabioilalar.
 - 6) Er-xotinning ma'lumot saviyasiga ko'ra: oliy ma'lumotli, o'rta maxsus, o'rta, tugatilmagan o'rta, maxsus yordamchi maktab malumotiga turlisaviyadagima'lumotlarga ega bo'lgan er-xotinlardan tashkil topgan oila.
 - 7) Er-xotinning ota onasi, oilasining moddiy ta'minlanganlik darajasiga ko'ra: qudalarning bir-biriga mos yoki ular orasida katta tafovut mavjudligi bo'yicha bir-biriga mos bo'lmagan oilalar.
- 8) Regional jihatlargako'ra: shahar, qishloq, aralash tipdagi oilalar.
 - 9) Nikohdan qoniqqanlik saviyasiga ko'ra: ajralish saviyasida, nikohdan qoniqqanlik darajasi, quyi darajali, o'rtadara jali oilalar.
 - 10) Oilada er-xotin orasidagi munosabatlarigako'ra: avtoritar, demokratik, liberal aralash tipdagi oilalar.
 - 11) Er-xotinning millatigako'ra: birmillatli, baynalmilal oilalar. Baynalmilal oilalarni o'z navbatida 2 bo'lish mumkin;
 - * dini, urfodatlari, tili, birguruhga kirgan millat vakillari orasidan nikohlarni masalan; o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-turkman, rus-ukrain va h.k.
 - * dini, urfodatlari, tili birguruhga mansub bo'lmagan millat vakillarining o'rtasidagi nikohlar, masalan; o'zbek-rus, o'zbek-ukrain, o'zbek-estoniya, o'zbek-nemis va h.k.
 - 12) Yuridik rasmiylashtirilganligigako'ra: sinovdagi oila (birgayash hashad ammo

³¹ Ganieva M.X., Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo'llanma Toshkent: 2010

hali nikohni rasmiylashtirmagan, chunki bir birlarini norasmiy nikohda debbilishyapti), rasmiylashtirish arsfasidagi oila (birga yashashadi, oila qurish maqsadianni, ammo ayrim obyektiv sabablarga ko'ra rasmiylashtirish kuchaytirilyapti), ni kohdagi oila, nikohdan tashqari oila (ayrim erkak kishilarning ikkinchi, uchinchi yuridik jihatdan norasmiy oilasi) kabidir.

Oilaviy munosabatlar. Oila a'zolarining o'rtasida sodir bo'layotgan murakkab munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar M. Davletshin, B. Qodirov, X. Karimov, N. Sog'inovlartomonidan o'rganilgan. Ulardako'pro qo'zbek oilasiga xos sur'odatlar, an'analarudumlarnuqtainazaridanoilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralarini tadqiq qilgan. Oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonunlarini tahlil etarekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy, o'zar munosabatlarga xos bo'lgan munosabatning psixologik tabiatini keling baholaychi, vadinamikasiga e'tiborni qaratganki, ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik.

Oila muhitini barkamol avlod va komil insonni tarbiyalash muommasi turkiyalarning muhtarak yodgorligi, Avesto, shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, tortib hozirgizamon pedagoglarining o'zigacha xos fikr mulohazalar bildirilganidiqqat gasazovdir.

Kaykovus, S. Sheroziy, Jomiy, Alisher Navoiy, A. Fitrat, A. Avloniy kabi, mutafakkirlarimizning ilmiy nazariy asarlarida oila munosabatlaridagi tarbiyaviy xarakterlikni uqtainazaridan bayon etilganligi alohida ahamiyat kasbetadi.

Oilaviy ziddiyatlar. Afsuski, zamonaviy jamiyatda oilaviy nizolar dolzarb mavzudir. Har qanday oila o'z hayoti davomida muommoli vaziyatlarga duch keladi. Ularni hal qilish qarama qarshi individual ehtiyojlar, motivlar, manfaatlar, sharoitida amalga oshiriladi. Oilaviy nizolar quyidagilarga bo'linadi: er xotinlar, ota onalar, bolalar, er xotinlarning ota onasi, bobo buvilari, va nevaralar. Oilaviy munosabatlarda asosiy rol ni nikohdagi nizolar egallaydi [4]. Nikohdagi nizolarning paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab oilalarning moliyaviy ahvolidagi yomonlashuvi, turmush o'tog'laridan birini yoki ikkalasining ortiqcha ish bilan bog'lanishi, ularning bittasi normal ishlamasligi, ularning birini uyda uzoq vaqt yo'qligi, bolalarni bolalar muassasalarga yoki boshqa muassasalarga joylashtirish imkoniyati yo'qligi va h.k. Kundalik hayotda eng ko'p uchraydigan muommolardan biri ota onalar va bolalar o'rtasidagi nizolar ham bo'lishi mumkin. Bola ko'pincha ota onasidan birining yo'qligi haqida tengdoshlarining bosimini boshdan kechiradi. Buuning, neyroskopik holatiga ta'sir qiladi. Bu esa bolada deviant xulq atvoriga ega bo'lgan o'smirlar soni ortib bormoqda, jinoyatchilik ko'paymoqda. Oiladagi janjallarni hal qilishda muommolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. G'alaba qozonish yoki himoyalani uchun emas balki hal qilish maqsadi bilan konstruktiv va xotirjam mulohazalar qilish lozim. Bahsga uchinchi tomonlarni jalb qilish tavsiya etilmaydi, ch

unkiularmajoroning yanadakuchayishigasababbo‘lishimumkin.

Xulosashuki, oilajamiyatning birbo‘g‘iniekangligisababli, oilalarni hartomonla o‘rganish, ulardagi turli xildagi muommolarni hal qilish, yechim qidirish, to‘g‘ri rejali ish yuritish, qanday muommoli oilalarni bu muhitdan olib chiqish vajamiyatga qo‘shib yuborish choratadbirlarini o‘ylab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – Toshkent: Adolat, 2018.
3. Ganieva M. X., Latipova N. M., Karamyan M. Ijtimoiy shaxslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010
4. Технологии социальной работы с семьей и детьми. Учебное пособие.
5. Ростовн/Д: Феникс, 2018. 259 с.
6. 5. Abarjon o‘g‘li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O‘QITUVCHI, 2(20), 216-219.
7. 6. Abarjon o‘g‘li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA‘SIRI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(14), 70-73.
8. 7. Madaminovna, K. S., Furkatovna, G. M., & Adakhamjon, A. (2023). SIGNIFICANCE OF SOIL FERTILITY IN FERGANA REGION. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1320-1324.
9. 8. Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.
10. 9. Xalmatova, S., Gaybullayeva, M., & Akramov, A. (2022). O ‘SIMLIKLAR OLAMIGA INSON FAOLIYATINING SALBIY TA‘SIRI, HAMDA UNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 947-953.
11. 10. Xalmatova, S., & Akramov, A. (2022). KIMYOVIY O ‘G ‘ITLAR TARKIBIDAGI TURLI MODDALAR ORQALI TUPROQLAR QATLAMINI IFLOSLASHI VA UNING OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 4-7.
12. 11. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.